

Rahmonov Ulug'bek Karimovich

*Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrasi dotsenti, O'rta maxsus kasb hunar ta'limi a'lochisi*

MUSIQA TA'LIMI ORQALI YOSHLARNI ESTETIK RUHDA TARBIYALASHDA INTEGRATSION ASOSIDA MADANIYATINI YUKSALTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa ta'limi orqali yoshlarni estetik ruhda tarbiyalashda integratsion asosida madaniyatini yuksaltirish, musiqa san'atining o'quvchi yoshlar hayotidagi ma'naviy o'rni hamda ularni kamolati haqida fikr yuritilgan.

Аннотация. В данной статье воспитание молодежи в эстетическом духе посредством музыкального образования рассматривается на интеграционной основе повышения ее культуры, духовной роли музыки в жизни студенческой молодежи, ее зрелости.

Annotation. In this article, the education of young people in an aesthetic spirit through music education is considered on the integration basis of increasing their culture, the spiritual role of music in the life of students, and their maturity.

Kalit so'zlar. Musiqa, estetika, tarbiya, integratsiya, asos, yoshlar, madaniyat, yuksaltirish, rivojlantirish, zamon, ustuvor, vazifa, o'rni, aniqlash.

Ключевые слова. Музыка, эстетика, образование, интеграция, основание, молодежь, культура, продвижение, развитие, время, приоритет, миссия, место, решимость.

Keywords. Music, aesthetics, education, integration, foundation, youth, culture, promotion, development, time, priority, mission, place, determination.

Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlod tarbiyasi va madaniyatiga bog'liq. Ma'lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma'naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta'sir etib boruvchi uzluksiz jarayon. Endilikdagi asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularning kuch va sadoqatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko'pgina davlatlari qatori O'zbekistonning olib borayotgan odilona va oqilona siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar ko'lamida payqash qiyin emas.

Fanlarning yo'nalishi va o'zaro aloqa jarayoni, diferensiyasi bilan birga kechadi. Integrativ yo'nalish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligini aks ettiradi. Bu jarayon tabiat-jamiyat-inson o'rtasida bo'lib o'tadi. Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Milliy musiqa va estetik tarbiya integratsiyasi asosida yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirish va rivojlantirish bugungi zamonning eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Milliy musiqa madaniyatining yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishdagi o'rnini aniqlash va uni amalga oshirish maqsadida musiqa ta'limi hamda tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanlarini o'qitish orqali singdirilib borilmoqda. Musiqa ta'limi fan sifatida o'zining tizimi, musiqiy fanlar tarmog'ida o'zining mustaqil o'rniga ega. Unda milliy musiqaning tarbiyaviy mazmuni, metodlari, sifat va samaradorlikka erishish yo'llari, qonuniyatlari o'rganiladi. Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda nafosat, musiqa fiziologiyasi, musiqiy psixologiya kabi qator fanlarning tajribalariga tayanish lozim. Chunki, musiqa madaniyati inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, unga eng oson ta'sir etuvchi kuch hamdir. Shuningdek, jamiyatda milliy musiqaning takomillashishi yoshlar estetik madaniyatini yuksalib

borishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga yoshlar estetik madaniyati integratsiyasida milliy musiqa madaniyatining o'zni alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish faqatgina ta'lim muassasalarida o'tiladigan dars va mashg'ulotlar ta'siri ostida shakllanmaydi. Uyda, tevarak-atrofdagi, jamoat joylarida, to'y-hashamlarda, bayramlarda, yurtimizda olib borilayotgan turli rusumdagi ommaviy tadbirlarda ham shakllanadi. Bunda ommaviy axborot vositalarini ham munosib o'zni bor. Bu esa zamonaviy talaba yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda milliy musiqaning quyidagi tarbiyaviy jarayonlari orqali amalga oshiriladi:

- yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda musiqiy qobiliyatni erta rivojlantirishda;
- yoshlarning yoshi va individual xususiyatlarini e'tiborga olishda;
- yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda musiqiy faoliyatning turli shakllarini rivojlanishida va ularga keng shart-sharoitlar yaratishda namoyon bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish integratsiyasida milliy musiqa va ta'lim muassasalari yetakchi omil hisoblanadi.

Yoshlar estetik madaniyati integratsiyasida milliy musiqa madaniyatining o'zni va uning tarbiyaviy ahamiyatiga urg'u berish, uzluksiz ta'limda milliy musiqa didaktikasi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish talab etiladi. Bu esa bolalarning juda yoshligidan boshlab musiqaga bo'lgan hissiyotini tarbiyalash muhim ekanligidan dalolat beradi. Shuni aytish kerakki, musiqa madaniyati nafaqat insonning ruhiyatiga samarali ta'sir etuvchi vosita, balki o'z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra tarbiya vositasi hamdir. Musiqa madaniyati shaxs ma'naviy barkamolligi tarkibiy va o'z o'rnida ajralmas qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga - xalqimizning estetik ma'naviyatini tiklash va rivojlantirishda milliy til, madaniyat, ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'urur va iftixorni o'stirish katta o'rin tutadi. Musiqa madaniyatining yosh avlodga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi faqat uni anglash yoki chuqur idrok etishni emas, balki yoshlarning shu san'at bo'yicha musiqa madaniyati darslari jarayonida o'rganilayotgan kuy-qo'shiqlarni ularning tafakkurida shakllantirish va rivojlantirishni taqozo qiladi.

Musiqaning asosiy maqsadi va vazifasi jamiyatda o'sib kelayotgan zamonaviy yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish orqali milliy musiqa merosimizga vorislik qiladigan, millat va g'ururni umumbashariyat oldida o'zining nafisligi, milliy kuy ohanglari ila ajralib turadigan jihatlari bilan ko'rsata oladigan va uning o'ziga xosligini har qanday tashqi ta'sir hamda kuchlardan saqlay oladigan kadrlarni tarbiyalashdan iborat. Musiqiy merosimizni qadrlaydigan iqtidorli yoshlarni tarbiyalab, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, bu borada ularning zaruriy bilim va amaliy malakalarini tarkib toptirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish barchamizning asosiy vazifamizdir.

Musiqiy ta'lim va tarbiya integratsiyasi yoshlarning estetik-axloqiy dunyoqarashini rivojlantiradi. Xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'pladi, uni takomillashtirdi va ijtimoiy hayotida turli vositalar orqali kelajak avlodga meros qoldirdi. Milliy musiqa madaniyati inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega, talaba yoshlarni nafas olamiga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Al-Forobiy "Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir", - degan bo'lsa, bobomiz Shayx Sa'diy esa "Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir", - deb ta'kidlaydi.

Yoshlar estetik madaniyati integratsiyasi yoshlarda milliy g'urur va milliy tafakkurni shakllantirishni vujudga keltiradi, bu esa, avvalo, o'zlikni anglash tarbiyasidan boshlanadi. O'zlikni anglash esa butun borliq, hayot va adabiyotning tub mohiyatini anglashga yo'l ochadi. Bundan ko'rinadiki, milliy g'urur o'z yurtining tarixini bilish, xalqining madaniy merosini asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazish orqali milliy qadriyatlarni tiklash, shu yo'l bilan millat va Vatan taraqqiyotiga xizmat qilishni anglatadi.

Bugungi kunda bizning eng katta yutug‘imizdan biri o‘z boyligimiz, o‘zligimizga ega bo‘lganimizdir. Binobarin, zamonaviy talaba yoshlarga ushbu boylıklarning qadriga yetishni o‘rgatishimiz, ularda minnatdorchilik, g‘urur, ishonch tuyg‘ularini shakllantirishimiz va tarbiyalashimiz kerak bo‘ladi.

Ma‘naviy-axloqiy mukammallik, vijdonlilik, or-nomuslilik, yaqinlariga g‘amxo‘r bo‘lish va shu kabi insoniy tuyg‘ular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Ularning asosida tarbiya, shuningdek, estetik tarbiya yotadi. Yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishda tarbiyaning bir qator vositalari qatorida musiqa alohida o‘rin tutadi.

Yoshlar milliy musiqa san‘ati orqali ularning estetik madaniyatini shakllantirishdan asosiy maqsad, ularda ma‘naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirish hamda ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini singdirish va shu orqali ularning yuksak ma‘naviyatli komil inson bo‘lib yetishishlariga asosiy vazifa sifatida qarash lozim. Dunyo tajribasidan ma‘lumki, musiqa madaniyatini tarbiya sifatida to‘g‘ri anglagan yoshlarning qalbida yovuzlik, vatanfurushlik, sotqinlik, xiyonatkorlik kabi illatlar bo‘lmaydi. Shuning uchun ham musiqa madaniyati yoshlarni faqat axloqiy-estetik jihatdan emas, balki milliy-mafkuraviy, tarbiyali va komillikka intiluvchi, jamiyatga foyda keltiruvchi qilib tarbiyalaydi.

Yoshlar estetik madaniyati integratsiyasida milliy musiqa madaniyati olijanob fazilatlarini kamol topishi ta‘sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ularni doimo go‘zallikka intilib va kundalik hayotida ana shu go‘zallik qoidalariga amal qilib yashashga o‘rgatish estetik tarbiyasini amaliy belgilaridan biridir. Musiqa madaniyati fani “Davlat ta‘lim standarti” va o‘quv dasturi yoshlarda ijodkorlik, kuzatuvchanlik, musiqiy did, musiqiy madaniyat, tashabbuskorlikni shakllantirish, taassurot olamini boyitish, tafakkur ko‘lamini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar estetik madaniyati integratsiyasida milliy musiqa madaniyatining ijtimoiy taraqqiyot bilan hamohang rivojlanib borishi yoshlarda musiqa san‘atiga nisbatan qiziqishni va havasning ortib borishi, musiqa mashg‘ulotlari asosida ularda hissiyot, idrok tarbiyasining o‘zib borishini, qo‘shiqlarni xushohang kuylash, musiqani ishtiyoq bilan tinglashni, asarlarni tahlil qilish orqali musiqadagi xushsozlik, xushovozlik, ya‘ni go‘zallikni shakllantiradi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, musiqa madaniyatining asosiy maqsadi – yoshlar nafosat olamini, didlarini badiiy asarlar orqali shakllantirishdir. Insonda go‘zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof-muhit ta‘siri ostida shakllanib boradi. Shunga ko‘ra, insonning badiiy rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog‘langan.

Innovatsion ta‘lim va tarbiya integratsiyasi jarayonida badiiy-estetik tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Badiiy tarbiya asosan ijtimoiy-estetik ideallar orqali namoyon bo‘ladi. Nafosat tarbiyasi, eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg‘ularini badiiy tarbiyalashdir. Bunday yuksak nafosatlilik aql-zakovatdan holi bo‘ladi - degan ma‘noni tushunmaslik kerak. Yoshlarning barkamol inson bo‘lib shakllanishida bu ikki tomon bir-birini to‘ldiradi. Chinakam san‘at asarida hissiyot chuqur g‘oyaviy, aqliy mazmun bilan idrok qilish birikib ketadi. Estetik tarbiya aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Ta‘kidlaganimizdek, bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish uchun milliy musiqani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratishi lozim. Chunki, alla, qo‘shiq, yalla, terma, lapar, yor-yor, o‘lan, terma, ashula, katta ashula va hatto mumtoz musiqa asarlarining ritmik ohangi, usullari, o‘ziga xos koloritmik xususiyatlari bilan xalqimizning udum, urf-odatlarini, an‘analari asosida musiqiy ohanglar orqali tarannum etiladi va har bir yosh uni eshitadi, tushunadi, idrok etadi va zavq oladi. Bugungi kunda biz musiqa madaniyati orqali ta‘lim-tarbiya birligiga erishmoqchi ekanmiz, shuni alohida nazarda tutmog‘i lozimki, bu estetik tarbiyaning muvaffaqiyati quyidagi omillarda namoyon bo‘ladi:

- yoshlar estetik madaniyati integratsiyasida milliy musiqa madaniyatining o‘rni nuqtai nazardan aniq maqsadga qaratilgan holda tashkil etish;

- yoshlar estetik madaniyati yuksaltirishda milliy musiqa madaniyati darslarini tashkil qilishning uslub va vositalarni to‘g‘ri tanlay olish;

- yoshlar estetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan mantiqiy va maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyani ta‘minlash;

- musiqa madaniyatida ta‘lim bilan estetik tarbiyaning mushtarak bo‘lishligi uning ilmiyligi, ko‘rgazmali, tushunarli, o‘zlashtirilgan bilimlarning mustahkamlash kabilar shular jumlasidandir.

Shuni aytib o‘tish joizki, yoshlar estetik madaniyati integratsiyasi badiiy did va estetik tarbiyaning asosi bo‘lgan dars jarayoni, o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.K.Rahmonov. Yoshlarni ma‘naviy ruhda tarbiyalashda baxshichilik san‘atining o‘rni. Oriental art and culture scientific-methodical journal. issn:2181-063x. volume 3 issue 1. march 2022.
2. U.K.Rahmonov. Sozandalar san‘atida milliy cholg‘ularning o‘rni. Oriental art and culture scientific-methodical journal. issn:2181-063x. volume 3 issue 2. june 2022.
3. U.K.Rahmonov. O‘zbek xalq musiqa san‘atining XVI-XIX asrlar rivojidadagi ilhombaxsh ohanglari. Science and innovation international scientific journal. ISSN:2181-3337. volume 1, ISSUE 7. 11.11.2022.
4. 13.Soliev A.R. O‘zbek xalqining boy musiqa merosini o‘rganishda an‘anaviy ijrochilik san‘atini o‘rni. Oriental Art and Culture, 4(2), 689-693.2023 yil
5. A.R.Soliev. Ma‘naviy-axloqiy tarbiyada o‘zbek xalq qo‘shiqlari va qarsak aytimlaridan foydalanish. Oriental Art and Culture, 4(2), 669-676. 2023 yil.
6. U.K.Rahmonov. A.R.Soliev. Sozandalik san‘atining barmoqdagi nolalari. innovative developments and research in education, 1(12), 109-119. 2022 yil.
7. A.R.Soliev. The role of national instruments in forming a harmonious generation in preschool educational institutions. Science and Innovation, 1(1), 637-646. 2022 yil.
8. L.Tursunova. Yoshlar musiqa madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini hayotga tadbiq etish. Eurasian journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. ISSN:2181-2888. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7964684> 6 January 2023.P- 23-34.
9. L.Tursunova. Musiqa madaniyati tushunchasi mazmun-mohiyati, tarkibiy va konseptual asoslari. Theoretical aspects the formation of pedagogical sciences. International scientific-online conference 09.09.2023. P-20-23.
10. <https://doi.org/10.5281/Zenodo.8330818>
11. L.Tursunova. Of children through the art of music spiritual, esthetic and moral taste qualities explain the content and find. International journal of advanced research in education, technology and management. Published in VOLUME 2| ISSUE 4| ISSN:2349-0012 2023.19.04. P-259-277. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7899255>